

**IJTIMOIY HIMOYAGA MUXTOJ AYOLLARDA SUISIDGA  
MOYILLIK XUSUSIYATLARINI KORREKSIYALASHNING  
IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI**

*Qodirova Surayyoxon Shokirovna*

*Buxoro xalqaro universiteti psixologiya fanlari o‘qituvchisi*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan, o‘z joniga suiqasd qilgan yoki qasd qilishga moyilligi bo‘lgan ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarga yordam ko‘rsatishda hududiy xususiyatlarni hisobga olish va idoralaro hamkorlikning samaradorligi xaqida.

**Kalit so‘zlar:** suidsid, psixologik yordam turlari, zamonaviy diagnostika, shoshilinch psixologik yordam, zo‘ravonlik

**KIRISH**

So‘nggi yillarda xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tizimli ishlar olib borilayotir. Zero, biz uzoq vaqt ayollar masalasi haqida ko‘p gapirsak-da, amaliy ishlar deyarli sezilmasdi. Opa-singillarimizning dardu tashvishiga beparvo qarab kelganimiz tufayli yillar davomida ko‘plab ijtimoiy muammolar to‘planib qolgan edi. 2020-yildan buyon hayotga tatbiq etilgan va xotin-qizlar muammolarini hal etishga qaratilgan noyob tizim — “Ayollar daftari” bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar ro‘yobga chiqarildi. Xotin-qizlar va bolalar mehnatini muhofazalash, majburiy mehnatning oldini olish masalasi ham kun tartibidan tushgani yo‘q. Bu jihatlar yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ham mustahkamlandi. Ya’ni unda majburiy mehnat, bolalarning barkamol rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladigan har qanday bolalar mehnati taqiqlanishi belgilab qo‘yildi. Ushbu muhim o‘zgarish aynan majburiy mehnat, xususan, bolalar majburiy mehnatiga to‘liq barham berilishida muhim huquqiy asos bo‘ladi.

Xalqimiz xohish-irodasi bilan qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz bu yo‘nalishdagi islohotlarni yangi bosqichga ko‘tarishda muhim huquqiy asos bo‘ladi. Zero, Konstitutsiya yangi tahririni ishlab chiqishda xalqimiz fikriga tayanildi. Konstitutsiyaviy qonun loyihasiga takliflarning 40 foizdan ortig‘i ayollardan kelib tushdi. Bu-yangi normalarda xalqimiz dunyoqarashi, fikr va tafakkuri aks etganining yorqin ifodasıdir.

Nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda haqiqiy ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam - bolalar, ayollar, qariyalar va nogironligi bo‘lgan shaxslardir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam e’tibordan chetda qolmadi. Har bir qatlamning ijtimoiy muhofazasi atroflicha qamrab olindi. Shu bois Konstitutsiyamiz inson manfaati va qadri ulug‘langan ochiq demokratik davlat, erkin

fuqarolik jamiyatni barpo etish yo‘lida huquqiy poydevor bo‘ladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga homiladorligi yoki bolasiga borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo‘shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanishi to‘g‘risidagi yangi norma kiritilib, bunday diskriminatsiyaga chek qo‘yishning huquqiy asosi yaratildi. Shu bilan birga, Bosh qomusimizda xotinqizlar va erkaklar teng huquqliligi, davlat xotinqizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta‘minlashi belgilandi.

Asosiy qonunda ayol va erkaklar teng huquqli ekanligi belgilanishi ham bejiz emas. Bu yillar davomida mustahkamlangan stereotiplarni sindirish, xususan, “ayol kishi uyda o‘tirishi kerak”, “ayollarga siyosatga aralashishni kim qo‘yibdi” kabi qarashlarni bartaraf etishda muhim qadam bo‘ldi.

Gender tenglik tamoyillarini Konstitutsiyada belgilash davlatning ayollarga bo‘lgan alohida e’tiborini ko‘rsatishi bilan birga, xotinqizlarning davlat va ijtimoiy hayotdagi rolini oshirib, imkoniyatini namoyon etishiga ko‘maklashadi. Jamiyatda gender tenglikni ta‘minlash borasidagi ana shunday izchil islohotlar samarasida xotinqizlarning davlat va jamiyat hayotidagi faol ishtiroki yanada kuchayadi. Xususan, 2030-yilga qadar boshqaruv lavozimlaridagi xotinqizlar ulushini kamida 30 foizga yetkazish ko‘zda tutilmoxda.

Ko‘rinib turibdiki, ijtimoiy yo‘nalishdagi islohotlarimiz tobora keng quloch yozmoqda. Konstitutsiyada ko‘zda tutilgan “ijtimoiy davlat”da esa xotinqizlarimiz manfaatlari himoyasi yanada kuchaytiriladi. Bu yo‘lda barchamiz bir bo‘lsak, albatta, kutilgan natijalarini qo‘lga Mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollar bilan doimiy korreksion ishlar olib borish ular o‘rtasida suidsid holatlarini oldini olish masalalari yuzasidan qat’iy chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Suitsid – o‘z joniga qasd qilish hodisasi O‘zbekistonda XX asrning oxirlarida keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Garchi, o‘z joniga qasd qilish muammosi hamma vaqt barcha millatlarda mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da. “O‘z joniga qasd qilish” atamasi shaxsning o‘z hayotini tugatishga qaratilgan mustaqil, ko‘p hollarda ixtiyoriy va qasddan amalga oshirishi tushuniladi. O‘z joniga qasd qilish deviant xulq-atvor ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, subyektda o‘z joniga qasd qilish haqidagi fikrlarning paydo bo‘lishi, o‘z joniga qasd qilish va o‘z joniga qasd qilish rejasini ishlab chiqishni o‘z ichiga olgan patologik fikrlash tarziga ega ekanligini anglatadi. O‘z joniga qasd qilish xulq-atvoriga bevosita o‘z joniga qasd qilishga urinish ham kiradi. Bugungi kunda o‘z joniga qasd qilish hodisasi dolzarb mavzulardan biridir. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti statistik ma’lumotlariga ko‘ra, o‘z joniga qasd qilish harakatlarining soni-yiliga o‘rtacha sakkiz yuz ming holatni tashkil qiladi. 15 milliondan ortiq odam turli sabablarga ko‘ra o‘z hayotini tugatishga qaratilgan xattiharakatlarni amalga oshiradi. O‘z joniga qasd qilish natijasida o‘lim har-yili qayd etilgan barcha o‘limlarning taxminan 1% ni tashkil qiladi.

Ijtimoiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, har qirq soniyada sayyorada fojeali (tugallangan) o'z joniga qasd qilish harakati sodir bo'ladi

Tadqiqotning maqsadi tazyiq va zo'ravonlikka uchragan, o'z joniga suiqasd qilgan yoki qasd qilishga moyilligi bo'lgan turli yoshdagi xotin-qizlarga kompleks yordam ko'rsatishda idoralararo hamkorlik samaradorligini oshrish usullari va yo'llarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida turli yoshdagi xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik va zo'ravonlikning oldini olish, o'z joniga suiqasd qilish yoki qasd qilishga moyilligi bo'lgan shaxslar bilan ishlash tartibinini o'rganish uchun sotsiologik tadqiqotini o'tkazish va natijalarini miqdoriy va sifat tahlilini amalga oshirish; ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni tahlil qilish va turli yoshdagi xotin-qizlarning zo'ravonlikka uchrashi, o'z joniga suiqasd qilishi yoki qasd qilishga moyilligi darajaning o'sishiga qaysi omillar salbiy ta'sir ko'rsatishi va tendensiyalarini shakkantirishi, omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish belgilandi.

Tadqiqot obyekti: Oiladagi nosog'lom muhit ta'sirida ayollarda kuzatiladigan ruhiy tushkunliklar

Qayg'u zarar ko'rgan odamning tabiiy reaksiyasi bo'lib, ayol kasallik tufayli yaqin insonini yo'qotishini his qilishi mumkin. Bunday paytlarda qayg'urish holati ikki hissa oshib ketishi mumkin.

Uyat. Nogiron odamlarning qarindoshlari ko'pincha bemorning xatti-harakatidan, bemorga g'amxo'rlik qilishni davom ettirish qiyin bo'lganidan g'azablanish yoki uyat hissini boshdan kechiradi. Ular uning parvarishini maxsus muassasaga joylashtirish orqali hal qilish haqidagi fikrga kela boshlaydi.

G'azab. G'azab vaziyatga qarab bemorga, o'ziga, shifokorga yoki vaziyatga qarshi yo'nalgan bo'lishi mumkin. G'azablanish holatini ko'pincha ayollar boshdan kechiradi. Bunday ayollarimizga yordam kerak bo'lganda shunday tavsiyalar beriladi: avvalo, bemorning kasalligi natijasida yuzaga kelgan xatti-harakatga bo'lgan boshqalarning g'azabi va uning o'ziga nisbatan g'azabi o'rtasidagi farqni anglab olish kerak.

Do'stlari, shifokori, psixologi, qarindoshlari yoki nogironligi bo'lgan odamlarga g'amxo'rlik qilayotgan yordam guruhidagi odamlardan maslahat olishga harakat qilish zarur.

Sharmandalik hissi. Bemor boshqalar oldida o'zini noto'g'ri tutish orqali o'z g'amxo'rlarini ham noqulay ahvolga solib qo'yishi mumkin. Vaziyatni shu kabi muammolarga duch kelgan boshqa g'amxo'rlar bilan muhokama qilish sizning xijolatingizni yengillashtirishga yordam beradi.

Shuningdek, bemorning xatti-harakatlarini yaxshiroq tushunishlari uchun do'stlar va qo'shnilariga kasallik haqida biroz aytib berish tavsiya etiladi.

Yolg'izlik. Ruhiy kasalliklar bilan og'rigan bemorga g'amxo'rlik qilayotgan odamlar ijtimoiy aloqalarni to'xtatadi, doimo uyda va uning yonida bo'lishadi, ular

faqat bemorni ko‘radi.

Ayollarga bunday vaziyatlarda tushkunlikdan chiqishi uchun tavsiyalar

Bir oila. Ba’zi odamlar uchun oila bemorlarga g‘amxo‘rlik qiladigan eng yaxshi yordamchi bo‘lsa, boshqalar uchun bu faqat qayg‘u keltiradi. Kasallarni yolg‘iz parvarish qilishning og‘ir yukini ko‘tarishga harakat qilmaslik kerak, boshqa oila a’zolaringizdan yordam oling, ular sizga yordam berishlariga imkon bering. Kerakli energiya manbayingiz faqat kasallik tufayli sarflanib, tugallanib qolishiga yo‘l qo‘ymang.

Muammolaringizni o‘zgalardan yashirmang. Bemorlarga g‘amxo‘rlik qilish tajribangizni boshqalar bilan baham ko‘rishingiz kerak. Hamma narsani ichingizda saqlash bilan siz ishingizni qiyinlashtirasiz. Sizning his-tuyg‘ularingiz sizning holatingizda tabiiy reaksiya ekanini his qilsangiz, muammolaringizni yengishingiz osonroq bo‘ladi. O‘zingizni qiyinlashtirayotganingizni his qilsangiz ham, boshqalarning yordamini rad qilmang. Bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammolarni oldindan o‘ylab ko‘ring va agar kerak bo‘lsa, atrofdagilardan yordam so‘rang.

O‘zingizga vaqt ajrating. O‘zingizga ham vaqt ajratishingiz kerak. Shunday qilib, siz boshqa odamlarni ko‘rishingiz, sevimli mashg‘ulotlaringiz bilan shug‘ullanishingiz va eng muhimi, hayotdan zavqlanishingiz mumkin. Agar buning uchun bemorni uzoq vaqt tark etishingiz kerak bo‘lsa, dam olishingiz uchun sizning yo‘qligingizda ishlashni davom ettira oladigan odamni topishga harakat qiling.

Chegaralaringizni biling. Savolga javob bering, ish siz uchun ortiqcha bo‘lishidan oldin qancha chidashingiz mumkin? Ko‘pchilik kasallarga g‘amxo‘rlik qilish ular uchun katta vazifaga aylanishidan oldin o‘z chegaralarini belgilashga muvaffaq bo‘ladi. Agar o‘zingizni haddan tashqari kuchsiz his qilsangiz, inqirozdan qochish va oldini olish uchun yordam so‘rang.

O‘zingizni ayblamang. Siz duch kelgan qiyinchiliklar uchun o‘zingizni yoki nogiron umr yo‘ldoshingizni ayblamang. Esingizda bo‘lsin, ular kasalligi uchun aybdor emas. Agar siz oilangiz va do‘srlaringiz bilan aloqani yo‘qotayotganingizni his qilsangiz, ularni yoki o‘zingizni ayblamang. Sizni nima ajratib turganini aniqlashga harakat qiling va muammoni birgalikda muhokama qiling. Boshqa odamlar bilan bo‘lgan munosabatlaringiz siz uchun yordam manbayi bo‘lishi mumkinligini unutmang, bu o‘zingiz uchun ham, xasta umr yo‘ldoshingiz uchun ham foydalidir.

Boshqalarning maslahatiga amal qiling va maslahat so‘rashdan qo‘rqmang. Kasallik o‘sib borishi bilan bemor bilan bo‘lgan munosabatlaringizdagi doimiy o‘zgaruvchan rolingiz va bemor bilan birga keladigan o‘zgarishlar haqida boshqa g‘amxo‘rlik qiluvchilardan maslahat so‘rash siz uchun juda foydali bo‘lishi mumkin.

Siz qanchalik muhim ekanligingizni unutmang. Sizning hayotiy farovonligingiz o‘zingiz, oilangiz va albatta, umr yo‘ldoshingiz uchun juda muhimdir. Uning hayotida

siz ajralmassiz, sизsиз bemor nima qilishni bilmaydi. Bu o‘zingizga g‘amxo‘rlik qilish uchun qо‘shimcha sababdir.

Xotin-qizlar o‘rtasida suitsidal holatlarning oldini olish maqsadida, aynan, ushbu organ vakillaridan zo‘ravonlikka uchrayotgan ayollar bilan ishlash borasidagi o‘z faoliyatlariga tanqidiy yondashishlari talab etiladi. “Tur mush o‘rtog‘ingizning oilasida qaysi turdagи zo‘ravonlikka uchragansiz?” degan savolga, kelinlarga nisbatan ko‘proq (18,1%) kansitish, tahqirlash, kalaka qilish, urishish, ta’qib qilish kabi ko‘rinishlarda namon bo‘ladigan

“ruhiy” zo‘ravonliklar sodir etiladi. Navbatdagisi sodir etilayotgan “jismoney” (9,4%) zo‘ravonliklardir. Shuni ta’kidlash lozimki, bu ikkala ko‘rinishdagi zo‘ravonlik turlari oxir-oqibat jabrlanuvchida o‘z joniga qasd qilish va qotillik kabi og‘ir oqibatlarni keltirib chiqaradi. Ularning (49,9%) nizoli vaziyatda o‘zlarini jazolanishlaridan “qo‘rqaman” degan bo‘lsa, 27,3 % “hayiqaman” degan javob variantini belgilaganlar.

Respondentlarda o‘zlariga tazyiq o‘tkazishganda, “nafrat” (14,4%) qayd etilgan bo‘lsa-da, oxir-oqibat suitsidga olib keluvchi “qo‘rquv” (13,1%), “dunyo qorong‘u bo‘lib, nima qilishni bilmay qolish” (9,2%), “aybdorlik” (8,9%), “umidsizlik” (8,2%) kabi tuyg‘ularning har o‘ntadan birida yashirin o‘z joniga qasd qilish xavfi mavjud. Oilalarda suitsid (zo‘ravonlik) ni yuzaga kelish holatlarining ko‘rsatkichlarini Smart tahlili asosida quyidagicha aniqlandi:

Olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar natijasida shaxslarning o‘z joniga qasd qilish harakatining ijtimoiy-psixologik determinantlarining empirik modeli ishlab chiqildi. Hisob-kitob natijalariga ko‘ra (3-rasm) Qoraqalpog‘iston respublikasi uchun Ijtimoiy ( $K_1=0,115$ ), Tibbiy ( $K_2=0,079$ ) va Iqtisodiy ( $K_5=0,13$ ) bloklar ustuvor ekanligi aniqlandi, bu esa o‘z navbatida:

Ijtimoiy sohada:

bepul psixologik markazlar tashkil qilish;

mahalla xodimlarining xotin-qizlarda o‘z joniga qasd qilishga moyilligini aniqlash bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarini maxsus treninglar orqali oshirish;

aholi bandligini ta’minalash markazlarining faoliyatini takomillashtirish (aholida mexnat motivatsiyasini shakllantira olish ko‘nikmalarini rivojlantirish, motivatsion intervju usulini o‘zlashtirish).

Tibbiy sohada:

mahalla (uchastka) shifokorlarining psixologik va psixoterapevtik yordam ko‘rsatish sifatini oshirish;

jabrlanganlarni bepul dori-darmon bilan ta’minalash;

viloyat ruhiy-asab kasalliklari dispanserida o‘z joniga qasd qilishga moyilliги bo‘lgan shaxslar reyestrini shakllantirish;

o‘z joniga qasd qilish xavfini baholash shkalalarini va aholini klinik ko‘rikdan

o‘tkazish hamda tibbiy yordam ko‘rsatishda ambulatoriya sharoitida tashvish va depressiyani aniqlash uchun anketalarni joriy etish.

Iqtisodiy sohada:

tumanlarda ijtimoiy korxonalarini tashkil etish; – tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga ko‘maklashish; – banklardan kredit olish mexanizmini soddalashtirish.

har bir MFYni psixolog va psixoterapevt xodimlar bilan ta’minlash;

maktablarda muammoli oilalar farzandlariga ko‘maklashishda maktab psixologlari rolini oshirish;

Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish muassasalarida “xavf guruhi” va ularning oila a’zolariga zarur psixologik yordamni tashkil etish;

ruhiy va xulq-atvor buzilishlarini erta tashxislash, o‘z joniga suiqasd qilishning oldini olish va boshqa dolzarb yo‘nalishlar bo‘yicha tadqiqot rejasini ishlab chiqish.

### **XULOSA VA TAVSIYALAR**

O‘z joniga suiqasd qilish jamiyatning jiddiy muammosi sifatida keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirish zarur.

Xususan:

deviant xulq-atvor ko‘rinishlaridan biri sifatida o‘z joniga qasd qilish hodisasinining o‘rganishga doir sotsiologiya, psixologiya, huquqshunoslik, iqtisod yo‘nalishlarida ilmiy tadqiqotlarni ko‘proq olib borish va oldini olish metodologiyasini ishlab chiqish;

suitsidal xulqning normal tarqalish xususiyatlaridan biri – erkaklar o‘rtasidagi suitsid ko‘rsatkichlarining ayollar suitsidan ko‘p bo‘lishi ekanligini e’tiborga olgan holda, ayollar suitsidi ko‘rsatkichlarining yuqoriligini normadan tashqari holat sifatida baholash va uning oldini olish bo‘yicha maxsus davlat dasturi ishlab chiqilib, unga qarshi kurash ishlarni maqsadli ravishda tashkil etish;

o‘z joniga qasd qilishlar ko‘rsatkichlarida o‘sish tendensiyasi kuzatilayotgan Andijon, Qashqadaryo va Sirdaryo viloyat mutasaddilarining ushbu holatlarga kuchli e’tibor qaratishi;

aholi o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydag‘i “Zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan xotin-qizlarni rehabilitatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ- 5116-sodn Qarorining mazmun-mohiyati, ushbu qaror asosida tashkil qilingan rehabilitatsiya markazlari va “Ishonch telefonlari” faoliyati to‘g‘risidagi xabardorlik darajasining pastligini e’tiborga olgan holda, ommaviy axborot vositalari orqali olib borilayotgan targ‘ibot-tashviqot ishlarni kuchaytirish, rehabilitatsiya markazlarining hamkor tashkilotlar, xususan, jabrdiyda ayollarning huquqiy muammolarini hal qilishda IIV va prokuratura organlari bilan, iqtisodiy masalalarda jabrlanuvchi yashaydigan MFYlar, mahalliy hokimliklar o‘rtasida hamkorlik aloqalarini kengaytirish;

MFY xodimlaridan ham norozilik yuqoriligini e’tiborga olgan holda, O‘zbekiston

Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan alohida tadbirlarni amalga oshirish;

xalqaro tajribalarga tayangan holda, jamiyatda fuqarolar o‘rtasidagi zo‘ravonliklarni bartaraf etish uchun ushbu jarayonning muhim elementi bo‘lgan

“zulm zanjiri”ni uzishga qaratilgan faoliyatni kuchaytirish kabilarni o‘z ichiga oladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi va Konstitutsiyasi / <https://constitution.uz/>
2. O‘zbekiston Respublikasi va Neft Kodekslari / <https://www.lex.uz/>
3. O‘zbekiston Respublikasi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” gi Qonuni / <https://lex.uz/docs/-4494709>
4. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” gi Qonuni. / <https://www.lex.uz/>
5. “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va
6. qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-829-son Qonuni/ <https://lex.uz/uz/docs/-6430272>
7. Ботиров Б., Ботирова С. Социцидал фаоллик ва уни прогнозлаш муаммолари./ Монография.-Тошкент.: “Фан ва технологиялар нашриёт уйи”, 2021. 118 бет
8. Шоумаров F., Соғинов Н.ва бошқалар. Суицид ҳолатларини тадқиқ этиш: муаммо ва ечимлар. Услубий қўлланма. Тошкент.2020.141 бет